

PRES-RELIZ

Bioiqtisodiyot – mamlakatlar va mintaqalarning barqaror rivojlanishi uchun yangi yondashuvi

O‘zbekiston Respublikasi Toshkent davlat agrar universitetining Samarqand filialida (Samarqand viloyati, Oqdaryo tumani, Dahbed shaharchasi, Amir Temur ko‘chasi, 7 uy) akademik, davlat muassasalari va iqtisodiyotning turli tarmoqlari korxonalarini uchun bioiqtisodiyot bo‘yicha 27-28 aprel kunlari “Mamlakatlar va hududlarning barqaror rivojlanishi uchun bioiqtisodiyot” nomli birinchi xalqaro ilmiy-amaliy forum bo‘lib o‘tadi.

Forumdan ko‘zlangan asosiy maqsad O‘zbekistonda bioiqtisodiyotni rivojlantirish imkoniyatlari – uning mohiyati, o‘rni, afzallikkleri, tarmoq yondashuvidan farqlari, yagona bioiqtisodiy ekotizimda turli sub’ektlarning vazifalari va afzallikkleri haqida fikr yuritishdan iborat.

Forumda tegishli davlat muassasalari va biznes vakillari, universitet professor-o‘qituvchilari va talabalari, Yevropa Ittifoqi va O‘zbekistonning bioiqtisodiyot sohasidagi olimlari va ekspertlari O‘zbekistonda bioiqtisodiyot yo‘nalishidagi oliy ta’lim va bioiqtisodiyotni rivojlantirishning mumkin bo‘lgan yo‘nalishlari va amaliy takliflari bo‘yicha keng qamrovli muloqot o‘tkazish va amaliy takliflar ishlab chiqish uchun ishtiroy etadi. Ikkinchi bioiqtisodiyot bo‘yicha forum 2023-yilda tashkil qilinadi.

Evropa Komissiyasi bioiqtisodiyotni qayta tiklanadigan biologik resurslarni ishlab chiqarish hamda bu resurs va chiqindilar oqimini oziq-ovqat, ozuqa, biomahsulotlar va bioenergiya kabi qo‘silgan qiymatga ega mahsulotlarga aylantirish deb ta’riflagan. Evropa Komissiyasi 2012 yilga qadar ushbu maqsadlarga erishish uchun “Bioiqtisodiyot strategiyasi”ni ishlab chiqdi va u 2018 yilda yangilandi.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston tarmoq iqtisodiyotidan bioiqtisodiyotga yanada samarali o‘tishni amalga oshirish uchun ulkan salohiyatga ega, ammo bu maqsadlarga erishish uchun mamlakatda bioiqtisodiy yondashuvlarni sanoat amaliyotiga joriy etadigan yuqori malakali mutaxassislarga muhtoj.

Forum Latviya Hayot fanlari va texnologiyalar universiteti rahbarligidagi **Yevropa Ittifoqining “ERASMUS+” dasturi tomonidan moliyalashtiriladigan “BioEcUz” konsorsiumi tomonidan “O‘zbekistonda bioiqtisodiyotni barqaror rivojlantirish bo‘yicha yangi magistratura dasturi” № 619294-EPP-1-2020-1-LV-EPPKA2-CBHE-JP**, loyihasi doirasida tashkil etiladi. Qo‘sishma ma’lumot va ishtiroy etish uchun quyidagi elektron pochta manzillari orqali bog‘laning shavkat.hasanov14@gmail.com, pardayev@yahoo.com.

| | |
|---|--|
|  <p>Co-funded by the Erasmus+ Programme of the European Union</p> | <p>Project consortium</p>        |
| <p>Forum Yevropa Ittifoqining ERASMUS+ dasturining moliyaviy ko‘magida tashkil etilgan.</p> <p>Evropa Ittifoqi 27 a’zo davlatdan iborat bo‘lib, ular o‘zlarining nouxaulari, resurslari va taqdirlarini bosqichma-bosqich bog’lashga qaror qildilar. 60 yillik kengayish davrida ular birgalikda madaniy xilma-xillik, bag’rikenglik va shaxsiy erkinliklarni saqlab qolgan holda barqarorlik, demokratiya va barqaror rivojlanish zonasini qurdilar.</p> <p>Evropa Ittifoqi o‘z yutuqlari va qadriyatarini o‘z chegaralaridan tashqaridagi mamlakatlar va xalqlar bilan baham ko‘rish tarafdiri. Shu maqsadda Yevropa Ittifoqi O‘zbekiston bilan 1992-yildan buyon hamkorlik faoliyatini yuritmoqda.</p> | |